

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH  
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/30.12.2019.QX.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**XAMIRAYEV O‘RAL KAXRAMONOVICH**

**O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY MINTAQASIDA KARTOSHK  
ZAMBURUG‘ KASALLIKLARI VA ULARGA QARSHI KURASH  
CHORALARI**

**06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT–2025**

**Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата докторской диссертации (DSc)**

**Contents of the abstract of doctoral dissertation (DSc)**

**Xamirayev O‘ral Kaxramonovich**

O‘zbekistonning markaziy mintaqasida kartoshka zamburug‘ kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari.....3

**Хамираев Урал Кахрамонович**

Грибные заболевания картофеля и меры борьбы с ними в центральном регионе Узбекистана.....27

**Khamirayev Ural Kaxramonovich**

Potato fungal diseases in the central regions of Uzbekistan and improvement of control measures.....54

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of publications.....59

**PAXTA SELEKSIYASI, URUG‘CHILIGI VA YETISHTIRISH  
AGROTEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.05/30.12.2019.QX.42.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**XAMIRAYEV O‘RAL KAXRAMONOVICH**

**O‘ZBEKISTONNING MARKAZIY MINTAQASIDA KARTOSHK  
ZAMBURUG‘ KASALLIKLARI VA ULARGA QARSHI KURASH  
CHORALARI**

**06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish**

**QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI BO‘YICHA FAN DOKTORI (DSc)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**TOSHKENT–2025**

**Qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2. DSc/Qx 357 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Toshkent davlat agrar universitetida bajarilgan.

Doktorlik dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.psuyaiti.uz](http://www.psuyaiti.uz)) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

<b>Ilmiy maslahatchi:</b>	<b>Shukurov Xushvaqt Mamasoliyevich</b> qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor
<b>Rasmiy opponentlar:</b>	<b>Eshchanov Baxodir Ruzumbayevich</b> qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor <b>Sanayev Sobir Toirovich</b> qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor <b>Xayitbayeva Nodira Seytjanovna</b> qishloq xo'jaligi fanlari doktori, katta ilmiy xodim
<b>Yetakchi tashkilot:</b>	<b>Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy tadqiqot instituti</b>

Dissertatsiya himoyasi Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi DSc.05/30.12.2019.Qx.42.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_soat\_\_\_\_\_dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y, O'zPITI ko'chasi, PSUYEAITI. Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (99871) 150-61-37 ; E.mail: [paxtauz@mail.ru](mailto:paxtauz@mail.ru))

Dissertatsiya bilan Paxta seleksiyasi, urug'chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (№\_\_ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111202, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Botanika M.F.Y, O'zPITI ko'chasi, PSUYEAITI. Tel.: (+99878) 150-62-84; faks: (99871) 150-61-37;

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025 yil «\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi)

**SH.N.Nurmatov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash raisi, q.x.f.d., professor

**F.M.Xasanova,**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash ilmiy kotibi, q.x.f.n.,  
professor

**J.X.Axmedov,**  
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy  
kengash qoshidagi ilmiy seminar  
raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Kartoshka dunyo miqqiyosida bir milliarddan ortiq odamning kunlik iste'molida mavjud bo'lib, 156 ta mamlakatda yetishtiriladi. Jami yer maydoni miqdori esa 20,7 million gektarni tashkil qiladi. Uning asosiy qismi oziq-ovqat maqsadida foydalaniladi va yiliga 437 million tonnani tashkil qilmoqda. Hozirgi kunda aholi sonining yildan-yilga o'sib borishi, oziq-ovqatga bo'lgan talabning oshib borishiga sabab bo'lmoqda. BMT qoshidagi Xalqaro qishloq xo'jalik va oziq-ovqat tashkiloti (FAO) ning ekspertlari 2050 yilda dunyo aholisi soni 10 milliardga yetishini bashorat qilishgan. Ushbu aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun mavjud qishloq xo'jalik maydonlarining o'zida va sug'orish suvining sarfini oshirmasdan ekinlarning hosilini oshirish talab etiladi<sup>1</sup>. Kartoshka oziq-ovqat xavfsizligi va kunlik taomlanishda global ahamiyatga ega va qolaversa daromad manbai ham hisoblanadi. Shu sababli ekinni kasalliklarga qarshi kurashda zamonaviy texnologiyalarga asoslangan holdagi dasturini bajarilishida atrof-muhitga salbiy ta'sir qilmaydigan muqobil texnologiyalarni izlab topish zarurati bugungi kunda muhim bo'lgan ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Dunyoda qishloq xo'jaligida yetishtiriladigan ekinlarni ekilish darajasiga ko'ra kartoshka 4 o'rinda turadi. Kartoshkada kasallik qo'zg'atuvchi zamburug' turlarining evolyutsiyasi, bioekologiyasi, epidemiologiyasi va genetikasi bo'yicha olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda jahonda oziq-ovqat tanqisligidagi global muammoni kamaytirish, aholini kartoshka bilan uzluksiz ta'minlash, ekinlarni zamburug' kasalliklaridan himoya qilishda havo va tuproq orqali tarqalish imkoni yuqori bo'lgan *Phytophthora infestans*, *Fusarium oxysporum*, *F. Solani*, *Alternariya alternata*, *A.solani*, *Rhizoctonia solani* zamburug'lariga qarshi bardoshli navlar yaratish hamda kasalliklarga qarshi kimyoviy va biologik kurash strategiyalarini ishlab chiqish hamda ekinlarning chidamliligini orttirishda infeksiya manbalarini kamaytirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda bugungi kunda kartoshkaga bo'lgan talab 4 mln tonnani tashkil qiladi. Shu ko'rsatkichning 80 % dan ortig'i yurtimizda yetishtirilib, qolgan 20 % import hisobidan to'ldirilmoqda. Hozirgi kunda Respublikamiz sharoitida kartoshkaga bo'lgan talabni qondirishda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston respublikasi prezidentining 2020 yil 6-maydagi PQ-4704-son "Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida kartoshkachilikni rivojlantirish bo'yicha vazifalar belgilab berilgan<sup>2</sup>. Shu munosabat bilan kartoshkachilikda hosildorlikni oshirishda sifatli urug' yetishtirish va suv tejevchi texnologiyalardan foydalangan holda hosildorlikni oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kartoshkachilikni rivojlantirish bo'yicha 2021 yil 15 iyuldagi PF-6262-son "Respublikada o'simliklar karantini va

---

<sup>1</sup> <https://www.nationmaster.com/nmx/ranking/potatoes-production-fao>

<sup>2</sup> Respublikada kartoshka yetishtirishni kengaytirish va urug'chiligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida Prezident qarori -4704-son 6 may 2020 yil

himoyasi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Farmoni hamda 2017 yil 20-oktabrdagi "Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash" va "O'zbekoziqovqat zahira" uyushmasi faolyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3344-son qarori va boshqa meyoriy-huquqiy xujjatlarida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi.** Jahonda kartoshkachilik sohasini rivojlantirish jarayonida ekologik toza, mo'l hosil yetishtirishda ekinlarni kasallik va zararkunandalardan himoya qilish muhim amaliy ahamiyatga ega. Kartoshkani vegetatsiya davrida kasalliklardan himoya qilishda zamburug'larning bioekologiyasi, tarqalishi, rivojlanishi va keltiradigan zararini aniqlash, o'rganish, zararlash miqdor mezonini ishlab chiqish hamda patogenlarga qarshi tashkiliy xo'jalik tadbirlari bilan birgalikda agrotexnik, kimyoviy va biologik kurash choralarini o'z vaqtida o'tkazish bo'yicha ilmiy-tadqiqot institutlari va universitetlarda jumladan, Tatariston qishloq xo'jalik ilmiy tadqiqot instituti, M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti (Rossiya), N.I.Vavilov nomidagi Genetik resurslar ITI (Rossiya, Sankt-Peterburg), China Agricultural University (Xitoy), Enomologikal research institute, Jhang road, Faisalabad (Pokiston), Government of the People's Republic of Bangladesh Department of Agricultural Extension (Bangladesh), Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ITI Toshkent va Samarqand ilmiy tajriba stansiyalari hamda Toshkent davlat agrar universitetlarida keng qamrovli ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda.

Dunyo malakatlarida kartoshkada zamburug' kasalliklariga qarshi kurash tadbirlarining samaradorligini oshirish yuzasidan qator ilmiy-amaliy natijalar olingan, jumladan: kartoshkani fuzarioz kasalligidan himoya qilish bo'yicha tavsiyalar (Tatariston qishloq xo'jalik ITI), Kartoshkaning eng muhim zamburug' kasalliklari va ularni baholash (Eron). Kartoshka o'simligining turli vegetatsiya davrida *Phytophthora infestans* (Mont) de Bary zamburug'ining jinsiy ko'payish jarayonida vujudga keladigan oosporalarning hosil bo'lishi (Moskva davlat universiteti), kartoshka urug'chiligida fitoregulyatorlarning fitoftoroz va alternarioz kasalliklarining rivojlanishiga ta'siri (Kostromskoy NIISX, Rossiya), Tojikiston sharoitida kartoshkaning fitoftoroz kasalligining o'rganilganlik darajasi (Tojikiston, Dushanbe), fitoftoroz kasalligidan himoya qilishda bashoratning o'rni (AQSH) va boshqalar. Hozirda kartoshka yetishtiruvchi mamalatlarda issiqxona sharoitida ham ochiq dala sharoitida ham yuqori hosil yetishtirish bo'yicha zamburug' kasalliklariga qarshi kurashishda ustuvor yo'nalishlarda ilmiy ishlar olib borilmoqda, jumladan: patogenlarning bioekologik xususiyatlari ochib berilgan, tarqalish areali aniqlangan, zararlash me'zonlari o'rganilan, zamburug'larga qarshi uyg'unlashgan, biotexnologik, agrotexnik, kimyoviy, biologik kurash usullari ishlab chiqilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Adabiy manbalarni tahlil qilinishi natijasida aniqlandiki, kartoshkani kasalliklardan munosib tarzda himoya qilishga bag'ishlangan mavzular yuzasidan azaldan jahonda bir muncha ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijasida kartoshkaning biologik va ekologik xususiyatlari, vegetatsiya davrida zarur bo'lgan agrotexnologiyalar va urug'chilik ishlari bo'yicha bir qancha ilmiy ahamiyatga molik yangi natijalarga erishilgan. Qolaversa zamburug' kasalliklarining kelib chiqishida, ularning tarqalishida, rivojlanishida, hosildorlikka zararida, o'simlikning yaxshi o'sishida tashqi muhit omillarining o'rni hisobga olingan.

Kartoshkada zararlash darajasi yuqori bo'lgan zamburug' kasalliklarini baholash va hosildorlikka salbiy ta'sirini o'rganish bo'yicha Yu. T. Dyakov, K.B. Popkova, M.Kuznetsova, B.V. Anisimov, I.L. Astapchuk, S.L. Tyuterev, B.M. Shundalov, F.B Gannibal, K.Robert, Kan Jin Shin va boshqalar, kartoshkaning oomitsetik va plazmodiofor kasalliklari bo'yicha G.W.Beakes, P.D.Gavino, C.D.Smart, R.W Miller, J.S.Hamm, P.B.Lee, T.Y.Davis, W.E. Fry, L.J.Grenville-Briggs, A.O.Avrora, C.R. Bruce, A.Williams, S.C.Whisson va boshqalar., kartoshkada rizoktonioz kasalligi qo'zg'atuvchisi *Rhizoctonia solani* Kühn zamburug'i va uning teleoforma bosqichining zarari to'g'risida O.O. Ajayi-Oyetunde, C.A. Bradley, N.A. Anderson, M. Gonzalez, Tsrer L, J. W. Woodhall, A. K.Lees, S. G. Edwards, P. Jenkinson va boshqalar, *Fusarium* turkumiga mansub (*Fusarium avenaceum* Sacc, *Fusarium oxysporum*, *Fusarium solani* (Mart.) Sacc, *Fusarium solani* f. sp.) turlarining kartoshkada so'lish kasalligini keltirib chiqarishi to'g'risida L. Lombard, Z. Zunaira, S. Shafique, T.Mehmood va boshqalar, kartoshkani fitofitorozdan himoya qilishda *Phytophthora infestans* zamburug'ining fungitsidlarga sezgirligi to'g'risida V.P. Aprishko, M. Nowicki, M.R. Foolad, M. Nowakowska, E.U. Kozik, S.K. Oh, S.Y. Kwon, D. Choi va boshqalar keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlarni olib borganlar.

Respublikamiz sharoitida M.N. Zaprometov, V. Zuyev, B. Hasanov, X. Bo'riyev, E. Xolmurodov, A. Sheraliyev, T.E. Ostonoqulov, O. Qodirxo'jayev va boshqalar kartoshka o'simligini yetishtirish texnologiyasi, kasallik qo'zg'atuvchilarining biologiyasi va ularga qarshi kurash choralarini ma'lum darajada o'rgangan hamda ilmiy-tadqiqot ishlarida kartoshkaning vegetatsiya va saqlash davrida patogenlarni tarqalishi, rivojlanishi, hosildorlikdagi zarari bo'yicha kurash choralari haqida qisqacha ma'lumotlar keltirib o'tganlar, ammo kartoshkaning yuqumli zamburug' kasalliklarini o'rganish va taxlil qilish bo'yicha keng qamrovli batafsil izlanishlar olib borilmagan. Bugungi kunga kelib, patogen zamburug'larning bioekologik jihatdan o'zgarishlari, ya'ni rivojlanish sharoitida muhit ta'siridagi hayotiy shakli, ko'payish usullari, parazitik ixtisoslashuvi, tuproq sharoitlariga moslashuvchanligi kuzatilayotgan bir paytda avval tavsiya qilingan ayrim kurash usullari va vositalaridan umuman voz kechishga to'g'ri keladi. Shu sababdan, ushbu patogenlarga qarshi tashkiliy xo'jalik tadbirlarini inobatga olgan holda turli xil kurash choralari agrotexnik, fizik, mexanik, kimyoviy, biologik va boshqa usullar ustida tadqiqotlar olib borilgan bo'lib, ularni ishlab chiqarishga joriy qilishni yanada takomillashtirish lozim. Kartoshkadan sifatli va tovarbopligi yuqori

hamda mo‘l hosil olishda asosiy zamburug‘ patogenlariga qarshi qo‘llaniladigan usul va vositalarni ishlab chiqish, kurash chora tadbirlarining samarasini oshirish va boshqalar nihoyatda muhim hisoblanadi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat agrar universiteti “Fitopatologiya va agrobiotexnologiya” kafedrasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining №2.7 “Qishloq xo‘jalik ekinlari kasalliklariga qarshi atrof-muhitga zararsiz kurash choralarini ishlab chiqish” (2018-2020 yy.), “O‘simlik kasalliklariga qarshi atrof muhitga zararsiz kurash choralarini ishlab chiqish, mikroorganizmlar asosida o‘simliklar hosildorligini hamda tuproq unumdorligini oshirish agrobiotexnologiyasi” mavzusida ilmiy tadqiqot rejasi doirasida amalga oshirilgan (2021-2024 yy.).

**Tadqiqotning maqsadi.** O‘zbekistonning markaziy mintaqalari, xususan Toshkent va Samarqand viloyatlari sharoitida kartoshka yetishtiriladigan hududlarda vegetatsiya davrida asosiy zamburug‘ kasalliklarini aniqlash, ularning biologik va ekologik xususiyatlarini o‘rganish, zarar yetkazish darajasini baholash va ushbu kasalliklarga qarshi ilmiy asoslangan kurash choralarini ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

kasallangan kartoshka o‘simligidan patogen zamburug‘larning sof kulturalarini ajratish va ularning tur tarkibini aniqlash;

ajratilgan zamburug‘ izolyatlarining rivojlanishiga oziqa muhiti, harorat va pH darajasining ta‘sirini o‘rganish;

zamburug‘ izolyatlarining patogenlik darajasini aniqlash;

Toshkent va Samarqand viloyatlarida 2022-2024 yillarda kartoshka ekinlarida zamburug‘li kasalliklarning tarqalishi va rivojlanishini monitoring qilish;

asosiy kasalliklarning o‘simlik biometrik ko‘rsatkichlari va hosildorlikka ta‘sirini baholash;

kartoshkada zamburug‘ kasalliklarining zarari tuproq-iqlim sharoitlariga, tuganaklarning zararlanishiga va infeksiyaning rivojlanishiga ta‘sirini o‘rganish;

*in vitro* sharoitida patogen zamburug‘larning mitselial o‘shishiga kimyoviy va biologik vositalarning ta‘sirini aniqlash;

kichik va katta dala tajribalari asosida tanlab olingan vositalarning samaradorligini baholash;

kartoshkaning asosiy kasalliklariga qarshi qo‘llaniladigan vositalar sxemasi va muddatlarini belgilash;

tavsiya etilgan vositalarning iqtisodiy samaradorligini hisoblash.

**Tadqiqot obyekti** sifatida yetishtirilayotgan kartoshka (*Solanum tuberosum* L.) o‘simligining rayonlashtirilgan “Rozara”, “Sante”, “Pikasso”, “Aqrab”, “Gala”, “Umid”, “Romano”, “Evolution” navlari va unga zarar yetkazuvchi zamburug‘li kasalliklar olingan.

**Tadqiqot predmeti:** Kartoshkada uchraydigan zamburug‘li kasalliklarning tashxisi, ularni keltirib chiqaruvchi patogen zamburug‘larning morfologik, biologik va ekologik xususiyatlari, kasalliklarning tarqalish qonuniyatlari, zararliligi hamda ularga qarshi qo‘llanilgan himoya vositalarining samaradorligi.

**Tadqiqot usullari.** Kartoshkada zamburug' kasalliklarining tarqalishi M.I.Dementeva, A.YE.Chumakov va T.I.Zaxarova; rivojlanishi A.YE.Chumakov hamda zarari A.YE.Chumakov, T.I.Zaxarovalar usullarida aniqlandi. Kasallangan o'simlik a'zolaridan gerbariyalar tayyorlash hamda zamburug'larning tur tarkibi va biologik xususiyatlarini o'rganishda M.K.Xoxryakov, T.L.Dobrozrakova, K.M.Stepanov, N.M.Pidoplichko, K.Kiray, V.I.Bilay, V.I.Dudka va S.Vasser usullaridan foydalanildi. Zamburug'larning mikroskopik ko'rinishini o'rganishda E.A.Koval va L.T.Gorbek usuli qo'llanildi. Zamburug'larning patogenlik xususiyatini o'rganishda V.I.Bilay; kasalliklarga qarshi fungitsidlarni qo'llash, biologik va iqtisodiy samaradorliklari M.I.Dementeva, Sh.T.Xo'jayev va A.F.Chenkin usullarida aniqlandi. Natijalarni statistik tahlil qilishda B.A.Dospexov usulidan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

Toshkent va Samarqand viloyatlarida kasallangan kartoshka o'simligidan patogen zamburug'larning 14 ta turi aniqlanib, ulardan 20 ta izolyatning sof kulturasi ajratilgan;

ilk bor ajratilgan zamburug' izolyatlariga oziqa muhiti, harorat va vodorod ionlari konsentratsiyasi ta'siri tizimli ravishda o'rganilgan. Bunda KDA oziqa muhiti optimal muhit ekanligi, haroratning ta'siri o'rganilganda 25°C haroratda barcha izolyatlarning maksimal rivojlanishi isbotlangan. Mazkur haroratda koloniyalarning 0,42-0,533 mm/s gacha tezlikda radial o'sishi aniqlangan. Patogen zamburug'larining rivojlanishiga pH ta'siri o'rganilganda *Fusarium* turkumiga mansub zamburug' izolyatlarining rivojlanishi uchun pH ning qiymati 6,0-7,0 oralig'ida bo'lishi, *V. nigrescens* uchun pH=7,0-7,5 bo'lishi, *Ph. infestans* uchun pH=6,0 bo'lishi, *Alternariya* turkumi uchun pH=6,5 bo'lishi hamda *Rh. solani* uchun pH=5,5-6,0 bo'lishi optimal sharoit ekanligi aniqlangan;

ajratilgan zamburug'larning patogenlik xususiyatlari aniqlanib, ularning biometrik ko'rsatkichlarga va hosildorlikka ta'siri o'rganilganda, *F.oxysporum* zamburug'iga mansub "Fo-2/Aq", "Fo-4/Rom", *F. solani* zamburug'iga mansub "Fs-2/Pik", "Fs-3/Roz", *A. alternata* zamburug'iga mansub "Al.at-5/Pik", *A. radicina* zamburug'iga mansub "Al.rdc-3/Rom", "Al.rdc-5/Pik", *V. nigrescens* zamburug'iga mansub "VN-4/Pik", *Ph. infestans* zamburug'iga mansub "Ph-6/Rom" va *Rh. solani* zamburug'iga mansub "Rh-2/Roz" izolyatlari tajribadagi barcha navlarni kuchli kasallantirishi aniqlangan hamda ushbu izolyatlar virulent ya'ni yuqori patogenlik xususiyatiga ega ekanligi tajribada isbotlangan;

*In vitro* sharoitda tuproq va zararlangan tuganaklar orqali tarqaladigan *F.oxysporum*, *F. solani*, *V.nigrescens* va *Rh.solani* zamburug'larining rivojlanishiga ikkita ta'sir etuvchi moddalar kombinatsiyasi (Fludioksanil + mefenoksam) ga ega bo'lgan Maksim XL 035 FS, 3,5% sus.k. urug'dorilagich fungitsidi yuqori darajada ta'sir etishi hamda zamburug' koloniyalarining rivojlanishini 100% gacha ingibr qilishi aniqlangan. Tarkibida ikkita ta'sir etuvchi moddasi bo'lgan boskalid + piraklostrobin (Bellis 380 g/kg s.d.g.) hamda mankotseb + metalaksil M (Ridomil Gold MS 68% s.d.g.) fungitsidlari havo orqali tarqaladigan *Ph.infestans*, *A.alternata* hamda *A.radicina* izolyatlarining mitselial o'sishini 100% gacha ingibr qilishi

aniqlangan. Bundan tashqari, tarkibida *Bacillus amyloliquefaciens* bakteriyasining “VKPM B – 12464” shtammi bo‘lgan Orgamika S, preparati barcha zamburug‘larga yuqori darajada ta’sir etishi hamda ularning mitselial o‘shini 76,1-83,2% gacha ingibrlashi aniqlangan;

ochiq dala sharoitida olib borilgan kichik va katta dala tajribalarida in vitro sharoitida qo‘llangan samarali preparatlarning samaradorligi amaliy jihatdan isbotlangan;

himoya tadbirlarining iqtisodiy jihatdan afzalligi aniqlanib, ularni ishlab chiqarishga joriy etish uchun tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Kartoshka ekinlarida patogenlik qiluvchi zamburug‘larning sof kulturasi ajratilib, ularning tur tarkibi, tarqalish darajasi, rivojlanish xususiyatlari va zarar yetkazish ko‘rsatkichlari aniqlanib, dominant turlarning biologik xususiyatlari baholandi. Kartoshkaning asosan zararlangan bargi, poyasi va tuganaklaridan *Fusarium oxysporum*, *F. solani*, *Verticillium nigrescens*, *Phytophthora infestans*, *Alternaria alternata* hamda *A. radicina* zamburug‘larining sof kulturalari ajratildi. Ushbu patogenlarning rivojlanishiga turli oziqa muhitlari, harorat va pH darajasining ta’siri aniqlangan.

Kimyoviy vositalardan boskalid + piraklostrobin (Bellis 380 g/kg s.d.g.– 0,8–1,2 kg/ga), mankotseb (A-Manzeb 80% n.kuk. – 1,5–2,0 kg/ga) va mankotseb + metalaksil-M (Ridomil Gold MS 68% s.d.g. – 2,5 kg/ga) fungitsidlarining “Umid”, “Pikasso”, “Romano” va “Aqrab” navlarida alternarioz va fitoftoroz kasalliklariga qarshi 87-89% gacha yuqori samaradorlik ko‘rsatishi isbotlandi. Ushbu preparatlarning 2-3 marotaba mavsum davomida qo‘llanilishi tavsiya etilgan.

Biologik vositalardan *Bacillus amyloliquefaciens* (VKPM B-12464 va QST-713 shtammlari) va *B. subtilis* (AN 2004 shtammi) asosidagi biofungitsidlarning samaradorligi o‘rganilib, ular alternarioz va fitoftoroz kasalliklarining rivojlanishini 83-86% gacha pasaytirishi aniqlangan. Biologik vositalarni mavsum davomida 2-3 marta qo‘llash amaliyotga joriy etish uchun tavsiya etilgan.

Urug‘lik kartoshka tuganaklariga ekishdan oldin fludioksonil + mefenoksam tarkibli fungitsidlardan biri bilan (0,4 l/t), g‘unchalash va gullash oxirida boskalid + piraklostrobin tarkibli fungitsidlardan biri bilan (1,2 kg/ga), tuganak hosil qilish fazasida esa Orgamika S, s. biofungitsidi bilan (2,0 l/ga) ishlov berish orqali fuzarioz, vertitsellyoz, rizoktonioz, alternarioz va fitoftoroz kasalliklarining rivojlanishini sezilarli darajada to‘xtatish va har gektar maydonda 65,2–74,5 s/ga hosilni saqlab qolish imkoniyati isbotlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** *In vitro* va dala tadqiqotlarining fitopatologik usul va vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, uslubiy jihatdan to‘g‘riligi va har yili maxsus tashkil etilgan komissiya tomonidan ijobiy baholanganligi, olingan ma’lumotlarning matematik-statistik tahlil qilinganligi va tajriba ma’lumotlariga mos kelishi, xulosalar asoslanganligi hamda olingan natijalarning solishtirilganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan o‘z isbotini topgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalari Toshkent va Samarqand viloyatlari sharoitida kartoshkada kasallik qo'zg'atuvchi *Fusarium oxysporum*, *F. solani*, *Verticillium nigrescens*, *Phytophthora infestans*, *Alternaria alternata* va *A. radicina* zamburug'larining sof kulturalari ajratilib, ularning ayrim biologik xususiyatlari o'rganilgani, shuningdek, fuzarioz, vertisellyoz, fitofloroz va alternarioz kasalliklarining tarqalishi, rivojlanishi hamda hosildorlikka ta'siri aniqlangani bilan ahamiyatlidir. Tadqiqot jarayonida olingan ma'lumotlar mazkur patogenlarning hududning tuproq-iqlim sharoitlariga mos ravishda tarqalish va rivojlanish mexanizmlarini tahlil qilish, infeksiya manbalari va ularning biologik-ekologik xususiyatlarini aniqlash, shuningdek, kasalliklarga qarshi integratsiyalashgan samarali kurash choralarini ishlab chiqish uchun zarur ilmiy asos yaratib berganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa kasalliklarga chidamli kartoshka navlarini ekishga tavsiya etilganligi, fitofloroz, fuzarioz, alternarioz va vertisellyoz kasalliklariga qarshi qo'llash uchun kimyoviy va biologik vositalarning sarf-me'yorlari hamda muddatlarining tavsiya qilinganligi va bu preparatlarning biologik hamda iqtisodiy samaradorligi amaliy jihatdan isbotlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Toshkent va Samarqand viloyatlari sharoitida kartoshka yetishtiriladigan hududlarda, zamburug' kasalliklariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida;

“Kartoshkani zamburug' kasalliklaridan himoya qilish tizimi” nomli tavsiyanoma tasdiqlangan. (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 29 maydagi №05/06-04-266-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu tavsiyanoma bugungi kunda qo'llanma sifatida agroklasterlar va fermer xo'jaliklari tomonidan amaliy faolyatda foydalanib kelinmoqda;

dastlab urug'lik tuganaklarni ekishdan oldin tarkibida fludioksonil bo'lgan Maksim 2,5% sus.k. hamda tarkibida fludioksonil va mefenoksam fungitsidlari bo'lgan Maksim XL 035 FS, 3,5% sus.k., 0,4 l/ga meyorda qo'llash Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani “Feruzbek plyus agro” f/x 5,9 ga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 29 maydagi №05/06-04-266-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, urug'dorilagich 0,4 l/t sarf-meyorda dorilangan variantda hosildorlik nazoratga nisbatan 69,5 s/ga ortishiga erishilgan;

biologik vositalardan tarkibida *Bacillus amyloliquefaciens* bakteriyasining “VKPM B– 12464” shtammi bo'lgan Organika S biopreparatining 0,3% li suspenziyasi barcha zamburug'larga yuqori darajada ta'sir etishi isbotlangan va ochiq dala sharoitida 1,5-2 l/ga me'yorda Toshkent viloyati Toshkent tumani “Abduazim agro” f/x 26 ga, Qibray tumani “Qibray salar fayz” f/x 2 ga, Yuqori Chirchiq tumani “Shoxrux agro tinchlik” f/x 3,5 ga, Samarqand viloyati Jomboy tumani “Ravshan” f/x 17 ga, jami 48,5 ga maydonga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 29 maydagi №05/06-04-266-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, nazoratga nisbatan yuqori qo'shimcha hosildorlik 73,0 s/ga ni

tashkil qilgan;

kimyoviy vositalardan dala maydonlarida ikkita ta'sir etuvchi moddalar kombinatsiyasiga ega bo'lgan boskalid + piraklostrobin (Bellis 380 g/kg s.d.g.) 0,8-1,2 kg/ga hamda andoza sifatida tanlangan mankotseb + metalaksil M (Ridomil Gold MS 68% s.d.g.) 2,5 kg/ga fungitsidlarini qo'llash Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumani "Gulchimir agro" f/x 5,5 ga, Toshkent tumanidagi "Abdusattor agro omad" f/x 25 ga, "Mirqosim kamola fayz" f/x 27 ga, "Alayor fayz" f/x 27 ga, jami 59,5 ga maydonga joriy etilgan, havo orqali tarqaladigan alternarioz va fitoftoroz kasalliklarining rivojlanishiga yuqori darajada ta'sir etishi aniqlangan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 29 maydagi №05/06-04-266-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, nazoratga nisbatan 71,2 s/ga gacha hosilning saqlab qolinishiga erishilgan.

Kartoshka hosildorligiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadigan zamburug' kasalliklariga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish uchun dastlab ularga qarshi kimyoviy va biologik vositalarning ta'siri *in vitro* sharoitida o'rganishdan boshlangan. *In vitro* sharoitida samarali bo'lgan vositalar avvaldan tanlab olingan hamda laboratoriya sharoitida patogenlarning ingibrlanish imkonini bergan. Jumladan: tajribalarda tuproq va zararlangan tuganaklar orqali tarqalish imkoni yuqori bo'lgan zamburug'larining rivojlanishiga ikkita ta'sir etuvchi moddalar kombinatsiyasi (Fludioksanil + mefenoksam) ga ega bo'lgan Maksim XL 035 FS, 3,5% sus.k. urug'dorilagich fungitsidi yuqori darajada ta'sir etishi aniqlangan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2025 yil 29 maydagi №05/06-04-266-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, zamburug' koloniyalarining rivojlanishini 100% gacha ingibrlanishiga erishilgan, shuningdek havo orqali tarqalish imkoni yuqori bo'lgan, ta'sir etuvchi moddasi boskalid+piraklostrobin (Bellis 380 g/kg s.d.g.) hamda mankotseb + metalaksil M (Ridomil Gold MS 68% s.d.g.) fungitsidlari ham zamburug' izolyatlarining mitselial o'sishini 100 % gacha ingibr qilishi aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Laboratoriya va dala tajribalari har yili Toshkent davlat agrar universiteti tomonidan tuzilgan maxsus aprobatsiya komissiyasi a'zolari tomonidan ko'rikdan o'tkazilgan va ijobiy baholangan. Mazkur tadqiqot ishi natijalari xalqaro, mamlakat miqqiyosidagi turli anjumanlarda, universitetning ilmiy kengashida muhokama qilingan.

**Natijalarning e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 18 ta ilmiy ishlar chop etilgan, shulardan 10 tasi O'zbekiston Respublikasi oiliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda e'lon qilingan bo'lib, shulardan 2 ta Respublika va 4 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda, 1 ta monografiya va 1 ta tavsiyanoma nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, besh bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etgan.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida kartoshkaning zamburug‘ kasalliklari bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan. Tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan. O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kartoshkaning zamburug‘ kasalliklari va ularga qarshi kurash choralari ni o‘rganilganlik darajasi”** deb nomlangan birinchi bobida kartoshkaning ahamiyati, yetishtirishning hozirgi kundagi holati va muammolari, kartoshka o‘simligida asosiy zamburug‘ kasalliklarining turlari va ularni o‘rganilganlik darajasi, kartoshkada kasallik qo‘zg‘atuvchi zamburug‘larning bioekologik xususiyatlari, kartoshkaning zamburug‘li kasalliklariga qarshi kurash choralari va hozirgi kunda himoya tizimining o‘rni to‘g‘risida maxalliy va xorijiy ilmiy adabiyotlardagi ma’lumotlar tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot o‘tkazish sharoiti va usullari”** deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqotlar o‘tkazilgan joyning tuproq-iqlim sharoitlari, tadqiqot o‘tkazish, oziqa muhitlarini tayyorlash, zararlangan o‘simlik naminalarini tahlil qilish usullari, shuningdek, patogen zamburug‘larning sof kulturasi ajratish, morfologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha ish uslublari keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Kasallangan kartoshka o‘simligidan patogen zamburug‘larning sof kulturasi ajratish hamda ayrim biologik xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobida, 2022-2024 yillarda Toshkent davlat agrar universiteti “Qishloq xo‘jaligi fitopatologiyasi” kafedrasida hamda “Ekofiziologik tadqiqotlar” ilmiy laboratoriyasida kasallangan kartoshka o‘simligidan patogen zamburug‘larni ajratish hamda ularning ayrim biologik xususiyatlari (zamburug‘ning rivojlanishiga oziqa muhitlarining ta’siri, haroratning ta’siri, morfologik va kultural belgilari hamda zamburug‘ koloniyalarining radial o‘sinh tezligi) ni o‘rganish bo‘yicha tajribalar olib borilgan. *In vitro* tajribalari fitopatologiya va mikologiyada umumqabul qilingan usullar asosida bajarilgan.

Tajribalarda Toshkent va Samarqand viloyatlari dala maydonlarida kartoshka ko‘p ekiladigan hududlarda kasallangan kartoshka o‘simligining ildizi, poyasi hamda barglaridan patogen zamburug‘larning 14 ta turi aniqlanib, ulardan 20 ta izolyatning sof kulturalari ajratib olingan (1-rasm, 1-jadval).



1- rasm. Kuzatuvning yettinchi kunida oziqa muhitlaridagi zamburug‘larning ko‘rinishi

Tajribalarda kuzatuvlarning 7 kunidan boshlab, Petri idishlarida hosil bo'lgan koloniyalardan zamburug'larning sof kulturasi ajratilgan. Bunda, Petri idishlarida hosil bo'lgan koloniyalaridan 1×1 o'lchamda kesib olinib, probirkalarga qiya qilib solingan sterillangan kartoshka dekstrozali agar (KDA) oziqa muhitiga ekilgan.

Kartoshka o'simligidan ajratilgan ba'zi izolyatlarning rivojlanishiga turli oziqa muhitlarining ta'siri o'rganilgan. *In vitro* tajribalari uch qaytariqda, kartoshka dekstrozali agar (KDA), kartoshka glyukozali agar (KGA), suslo agar (SA), Chapek oziqa muhitlari hamda nazorat variantida nam kamerali muhitlaridan foydalanilgan.

### 1-jadval

#### Kasallangan kartoshka o'simligining ildizi, tunganagi, poyasi hamda barglaridan ajratilgan patogen zamburug'larning turlari

№	Kasallik nomi	Zamburug' nomi	O'simlikning qaysi a'zosi dan ajratilganligi
1	Fuzarioz so'lish	<i>Fusarium oxysporum</i>	Poya va barg
2	Fuzarioz quruq chirish	<i>F. solani</i>	Tuganaklar
3	Vertitsillyoz so'lish	<i>Verticillium nigrescens</i>	Poya
4	Fitoftoroz	<i>Phytophthora infestans</i>	Poya va barg
5	Alternarioz	<i>Alternariya alternata</i>	Poya va barg
6	Alternarioz	<i>A. radicina</i>	Poya va barg
7	Klodosporioz	<i>Cladosporium herbarum</i>	Barg
8	Nihol rizoktoniozi	<i>Rhizoctonia solani</i>	Tuganaklar va ildiz
9	Oosporoz yoki tunganak bo'rtma kalmaraz	<i>Oospora variabilis</i>	Tuganaklar
10	Tugmali chirish	<i>Pythium debaryanum</i>	Tuganaklar, barg
11	Ikkilamchi chirishlar	<i>Acremonium</i> sp.	Poya, barg va tuganaklar
12	Kulrang va ikkilamchi chirishlar	<i>Stemphylium solani</i>	Poya va barg
13	Kulrang chirishlar	<i>Cylindrocarpon</i> sp.	Tuganaklar, barg va poya
14	Ikkilamchi chirishlar	<i>Phialophora</i> sp.	Tuganaklar, poya

Ajratib olingan izolyatlarning rivojlanishi uchun KDA oziqa muhiti eng optimal muhit ekanligi hamda mazkur muhitda koloniyalarning soatiga 0,372-0,534 mm/s gacha tezlikda radial o'sishi aniqlangan (2-jadval).

### 2-jadval

#### Kasallangan kartoshkadan ajratilgan patogen zamburug'lar izolyatlarining turli oziqa muhitlarida spora hosil qilishi

№	Zamburug'lar nomi	Oziqa muhiti nomi va spora hosil qilishi*				
		Nam kamera	KDA	KGA	SA	Chapek
1	<i>F.oxysporum</i>	+	++++	+++	+	++
2	<i>F. solani</i>	+	++++	+++	+	++
3	<i>V.nigrescens</i>	-	+++	++	-	+
4	<i>Ph.infestans</i>	-	+++	+++	-	-
5	<i>A.alternata</i>	+	++++	++	++	+++
6	<i>A. radicina</i>	+	++++	++	++	+++
7	<i>Rh.solani</i>	-	+++	++	-	+

Izoh: "-" – yo'q; "+" – bitta; "++" – kam; "++++" – ko'p; "+++++" – juda ko'p.


Navbatdagi *In vitro* tajribalarida zararlangan kartoshka o‘simligidan ajratilgan izolyatlarning o‘shishi va rivojlanishiga ( $^{\circ}\text{C}$ ) haroratning ta’siri o‘rganilgan. Tajribada 20 ml dan KDA oziqa muhiti solingan sterillangan Petri idishlariga 7 kunlik zamburug‘ izolyatlaridan  $1 \times 1$  mm blok qilib kesib olinib ekilgan. So‘ngra ekilgan izolyatlar turli harorat oralig‘ida  $10^{\circ}\text{C}$ ,  $15^{\circ}\text{C}$ ,  $24^{\circ}\text{C}$ ,  $25^{\circ}\text{C}$ ,  $28^{\circ}\text{C}$ ,  $30^{\circ}\text{C}$  va  $35^{\circ}\text{C}$  da 7 kun inkubatsiya qilingan hamda koloniyalar diametrlari o‘lchangan.

Olib borilgan *In vitro* tajribalarimiz natijasiga ko‘ra, barcha izolyatlarning maksimal rivojlanishi hamda radial o‘shish tezligining yuqori ko‘rsatgichi  $25^{\circ}\text{C}$  haroratda kuzatilgan (3-jadval, 2-rasm).

### 3-jadval

#### Kasallangan kartoshka o‘simligidan ajratilgan zamburug‘ izolyatlarining turli haroratlarda hosil qilgan koloniyalarining diametri, mm

Zamburug‘lar nomi	$10^{\circ}\text{C}$	$15^{\circ}\text{C}$	$20^{\circ}\text{C}$	$25^{\circ}\text{C}$	$28^{\circ}\text{C}$	$30^{\circ}\text{C}$	$35^{\circ}\text{C}$
<i>F. oxysporum</i>	11,57	36,03	52,40	89,50	81,50	77,50	30,40
<i>F. solani</i>	10,83	35,57	50,60	87,27	82,60	78,50	32,33
<i>V. nigrescens</i>	6,77	21,53	37,90	70,60	15,43	10,60	6,43
<i>Ph. infestans</i>	12,57	28,37	48,50	75,17	41,33	18,43	8,37
<i>A. alternata</i>	1,67	14,93	48,40	82,17	70,73	63,13	52,97
<i>A. radicina</i>	2,07	15,47	51,53	80,47	68,33	55,47	36,23
<i>R. solani</i>	14,77	31,10	53,40	73,40	30,53	26,37	12,43



2-rasm. Zamburug‘ koloniyalarining radial o‘shish tezligi, mm/s.

Navbatdagi *In vitro* tajribalarida zararlangan kartoshka o‘simligidan ajratilgan izolyatlarning o‘shishi va rivojlanishiga vodorod ionlari konsentratsiyasi (pH) ning ta’siri o‘rganilgan. Bunda sterillangan Petri idishlariga sterillangan KDA oziqa muhitidan 20 ml dan solib chiqilgan. So‘ngra o‘n kun inkubatsiya qilingan zamburug‘ kulturalaridan  $5 \times 5$  qilib kesib olindi hamda ekilgan. Oziqa muhitining pH darajasi raqamli pH o‘lchagich asbobi yordamida hisoblangan (4-jadval).

Izolyatlarning patogenlik xususiyatlari V.Kumar va boshqalarning (2008) tavsiya etgan usulidan foydalanib aniqlangan. Dastlab, toza qum va tuvaklar avtoklavda sterillab olingan. So‘ngra har biriga bittadan o‘simlik ekib chiqilgan hamda 4 hafta o‘stirilgan. Sun‘iy zararlash uchun patogen zamburug‘larning KDA

oziqa muhitida 10 kun inkubatsiya qilingan turli izolyatlarining suspenziyasidan foydalanilgan. Suspenziyalarning titri Goryayev kamerasida hisoblangan. Har bir tajribadagi suspenziyalarning konsentratsiyasi 5000 spora / ml ( $5 \times 10^3$  k.h.q.b.) qilib belgilab olingan hamda har bir tuvakdagi o‘simlikka 40 ml dan purkalgan. Tajribada kartoshka navlarini 0-30,0% gacha kasallantirgan izolyatlarni avirulent, 30,0% dan ortiq kasallantirgan izolyatlarni esa virulent deb hisoblangan. Sun‘iy zararlangan o‘simliklardagi kasallikning rivojlanishini aniqlash uchun 5 balli shkaladan foydalanilgan.

#### 4-jadval

#### Kasallangan kartoshka o‘simligidan ajratilgan zamburug‘ izolyatlarining rivojlanishiga vodorod ionlari konsentratsiyasi (pH) ning ta‘siri

Zamburug‘lar nomi	Kunlar	pH=5,0	pH=5,5	pH=6,0	pH=6,5	pH=7,0	pH=7,5
		Hisobga olingan kunlarda koloniyalar diametri, mm					
<i>F. oxysporum</i>	5	11,33	23,67	59,40	65,43	48,50	22,57
	7	18,53	41,57	76,60	80,60	62,43	35,77
	10	25,60	52,50	82,40	88,93	67,87	39,97
<i>F. solani</i>	5	9,67	19,43	52,53	63,63	48,37	27,57
	7	17,57	36,53	73,10	77,73	56,10	33,53
	10	26,40	48,50	78,30	86,40	66,47	42,63
<i>V. nigrescens</i>	5	4,07	8,67	17,43	28,50	42,43	40,63
	7	8,73	21,33	33,40	43,57	67,47	62,93
	10	14,50	32,60	40,23	51,37	76,43	73,10
<i>Ph. infestans</i>	5	8,53	18,40	52,77	38,67	27,40	12,40
	7	14,80	36,53	60,57	57,43	32,60	18,47
	10	22,63	47,53	73,57	65,47	46,67	23,67
<i>A. alternata</i>	5	6,63	15,37	24,07	55,43	42,53	23,70
	7	12,70	26,53	36,63	66,63	47,47	27,37
	10	18,33	32,43	43,53	79,13	58,40	39,47
<i>A. radicina</i>	5	5,60	16,40	25,53	46,40	38,47	20,40
	7	13,57	28,47	37,27	58,67	48,53	25,93
	10	20,93	33,57	45,37	77,37	55,57	26,67
<i>R. solani</i>	5	22,47	45,47	42,50	30,37	18,53	3,17
	7	33,40	68,50	66,60	48,57	27,13	6,30
	10	37,27	76,43	73,43	55,33	32,67	9,50

**Ilmiy ishlarning manbalari sifatida** Respublikaning ikkita – Toshkent va Samarqand viloyatlarida kartoshka yetishtirishga ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklari hamda Toshkent davlat agrar universiteti “O‘quv ilmiy tajriba xo‘jaligi” kichik dala maydonlarida tajribalar o‘tkazilgan. Laboratoriya tadqiqotlari Toshkent davlat agrar universitetining “Qishloq xo‘jaligi fitopatologiyasi” va “Ekofiziologik tadqiqotlar” ilmiy laboratoriyalarida olib borilgan.

Kartoshkada zamburug‘ kasalliklarining tarqalishi, rivojlanishi va asosiy kasalliklarning biometrik ko‘rsatgichlariga ta‘sirini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar 2022-2024 yillarda Samarqand viloyatining Jomboy tumanidagi “Bozorov Zohid zamini”, “Nush agro grand”, “Farangiz nurli zamin”, “Kamola”, “Ravshan”,

“O‘razali fayz dalasi”, Narpay tumanidagi “Ro‘zimurod Dehqon”, “G‘alaba Qaxramon ota”, “Ravshanbek dalalari”, “Amirxon asl agro”, “Samandar Rahmon”, “Azimjon Tojiev”, “Amirxon Mirbozor dalalari”, “Narpay yaxshi niyat”, Payariq tumanidagi “Saxovatli Pangat zamini”, “Musabek chorva kompleksi”, Pasdarg‘om tumanidagi “Shomurod bobo”, Samarqand tumanidagi “Qurbonboy Mitinovich”, “Xakimov Abduhalim”, Oqdaryo tumanidagi “Ezozbek asl dalalari”, “Temurxon Mullaxo‘ja”, Toyloq tumanidagi Sabzavot, poliz ekinlari va kartoshkachilik ilmiy-tadqiqot instituti, Samarqand ilmiy-tajriba stansiyasi dala maydonlarida, Toshkent viloyati Yuqori Chirchiq tumanidagi “Umar ota o‘g‘illari”, “Taraqquiyot zamin”, “Shohruh agro tinchlik”, “Gulchimir agro”, “Farodis hirmoni”, “Feruzbek plyus agro”, “Firdavs agro”, Toshkent tumanidagi “Abdusattor agro omad”, “Mirqosim Kamola fayz”, “Alayor fayz”, “Abduazim agro”, Zangi ota tumanidagi “Davr agro klaster”, Qibray tumanidagi “Qibray Salar fayz”, “Temir qadam Xasan fayz” fermer xo‘jaliklarida, hamda Toshkent davlat agrar universiteti “O‘quv tajriba xo‘jaligi”da monitoring qilingan.

**“Kartoshka dalalarida asosiy zamburug‘li kasalliklarining tarqalishi, rivojlanishi va zarari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida zamburug‘li kasalliklarning tarqalishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta‘siri bo‘yicha tadqiqotlar olib borilgan. 2022 yilda Samarqand viloyati sharoitida fuzarioz kasallikning eng ko‘p tarqalishi (30,0%) va kuchli rivojlanishi (12,5%) Jomboy tumanida “Umid” navida aniqlangan (5-jadval).

Toshkent viloyati sharoitida fitoftoroz kasalligining kartoshka maydonlarida 2022 yilda 4,0%-32,0% gacha, 2023 yilda 8,0-34,0% gacha, 2024 yilda 14,0-40,0% gacha tarqalganligi aniqlangan. Kasallikning eng ko‘p tarqalishi (40,0%) va kuchli rivojlanishi (22,5%) 2024 yilda Qibray tumanida etishtirilayotgan kartoshkaning “Umid” navida aniqlangan (6-jadval).

Dissertatsiyaning **“Kartoshkaning asosiy zamburug‘ kasalliklariga qarshi kurash choralari ishlab chiqish”** deb nomlangan beshinchi bobida kartoshkani zamburug‘li kasalliklardan himoya qilishda dala maydonlarida keng tarqalgan va hosildorlikka sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatadigan kasalliklarga qarshi kurash choralari hamda qarshi qo‘llanilgan vositalarning iqtisodiy samaradorligi ishlab chiqilgan. Kasalliklarga kurash choralari ishlab chiqishda dastlab ularga qarshi kimyoviy va biologik vositalarning ta‘sirini *in vitro* sharoitida o‘rganishdan boshlangan.

Kimyoviy vositalarning zamburug‘ izolyatlariga ta‘sirini o‘rganishda, tuproq va zararlangan tuganaklar orqali tarqaladigan *F. oxysporum*, *F. solani*, *V. nigrascens* va *Rh. solani* zamburug‘lariga qarshi urug‘dorilagich fungitsidlar hamda havo orqali tarqalish ehtimoli yuqori bo‘lgan *Ph. infestans*, *A. alternata* va *A. radicina* zamburug‘lariga qarshi vegetatsiya davrida qo‘llaniladigan fungitsidlar tanlangan (7-jadval).

Tajribada urug‘dorilagich fungitsidlardan 2 ta bitta ta‘sir etuvchi moddalar kombinatsiyasiga ega bo‘lgan Benomil (Fundazol, 50% n.kuk. 500 g/kg) va Fludioksanil (Maksim 2,5% sus.k. 25 g/l), 2 ta ikki hil ta‘sir etuvchi moddalar kombinatsiyasiga ega bo‘lgan Karboksini + Tiram (Vitovaks 200 FF 34% s.sus.k. 170

g/l + 170 g/l) va Fludioksanil + mefenoksam (Maksim XL 035 FS, 3,5% sus.k. 25 + 10 g/l) hamda 1 ta uch xil ta'sir etuvchi moddalar kombinatsiyasiga ega bo'lgan Tiametoksam + Fludioksonil + Difenokonazol (Selest Top 312,5 FS, sus.k. 262,5 g/l + 25 g/l + 25 g/l) fungitsidlari tanlangan.

Vegetatsiya davrida qo'llaniladigan fungitsidlardan esa 5 ta bitta ta'sir etuvchi moddalarga ega Azoksistrobin (Azoks 25% sus.k. 250 g/l), Mis xlorokisidi (Mis xlorokisidi 85% n.kuk. 850 g/kg), Benomil (Alfa fundaz 50% n.kuk. 500 g/kg), Gimeksazol (Tachigazol 30% SL s.e.k.) va Mankotseb (A-Manzeb 80% n.kuk. 800 g/kg) hamda 3 ta ikkita ta'sir etuvchi moddalar kombinatsiyasiga ega Azoksistrobin + Difenokonazol (Azoksifen 32,5% sus.k. 200 g/l + 125 g/l), Boskalid + piraklostrobin (Bellis 380 g/kg s.d.g. 252 g/l+128 g/kg) va Mankotseb + metalaksil M (Ridomil Gold MS 68% s.d.g. 640g/kg + 40 g/kg) fungitsidlari tanlangan (8-jadval).

Bunda Petri idishlariga KDA oziqa muhiti solinib, har biriga yuqoridagi fungitsidlarning suspenziyasidan 15 ml dan quyib chiqildi. Nazorat variantida esa faqat KDA oziqa muhitining o'zi solindi. Mazkur *In vitro* tajribalari har bir variant uchun uch qaytariqda bajarildi. Har bir qaytariqda uchtadan Petri idishlaridan foydalanildi. Bunda Petri idishlariga 10 kun inkubatsiya qilingan zamburug' koloniyasidan 1×1 mm kesib ekildi. So'ngra ular termostatda 25°C da 7 kun inkubatsiya qilingan.

Zamburug' koloniyalarining o'sishini ingibrlash foizi quyidagi formula bo'yicha hisoblangan.

Koloniya o'sishini ingibrlash foizi

$$\frac{C - T}{C} * 100$$

Bu yerda;

C: nazorat variantidagi zamburug' koloniyasining diametri;

T: tajriba variantidagi zamburug' koloniyasining diametri.

Keyingi tajribalarda bionazorat vositalarining *in vitro* sharoitida patogen izolyatlarning mitselial o'sishini ingibr qilishi o'rganilgan. Tajribada *F. oxysporum*, *F. solani*, *A. alternata*, *A. radicina*, *V. nigrescens*, *Ph. infestans* va *Rh. solani* zamburug'larining streptomotsin sulfat (300 mg/ml) qo'shilgan KDA oziqa muhitida 10 kun inkubatsiya qilingan izolyatlaridan foydalanilgan.

Tajribalarda tarkibida *Bacillus subtilis* bakteriyasining "26D" shtammi bo'lgan Fitosporin M. kuk., *B. amyloliquefaciens* bakteriyasining "VKPM B -12464" shtammi bo'lgan Orgamika S, s biofungitsidlari foydalanilgan zamburug'larning mitselial o'sishini yuqori darajada ingibr qilishi aniqlangan.

Taqiqotlar kichik va katta dala sharotlarida ham olib borilgan. Kichik dala tajribalarida kimyoviy vositalardan quyidagi, ikkita ta'sir etuvchi moddalar kombinatsiyasiga ega bo'lgan boskalid + piraklostrobin (Bellis 380 g/kg s.d.g.) hamda andoza sifatida tanlangan mankotseb + metalaksil M (Ridomil Gold MS 68% s.d.g.) fungitsidlari, biologik vositalardan Orgamika S, s., Fitosporin M. kuk. hamda Serenada Aso sus.k. biofungitsidlari *A. alternata*, *A. radicina* hamda *Ph. infestans* zamburug'larining rivojlanishiga kuchli ta'sir etishi aniqlangan.

**2022 yilda Samarqand viloyatining ayrim tumanlaridagi kartoshka dalalarida fuzarioz kasalligining tarqalishi va rivojlanishi**

№	Tumanlar	Xo'jalik nomi	Kartoshka navi	O'rganilgan o'simliklarning umumiy soni, dona	Zararlanish darajasi bo'yicha o'simliklar (aloxida shoxlar, poya va barg) soni, dona					Kt, %	Kr, %	Ki, %
					Ballar							
					0	1	2	3	4			
1	Jomboy	“Bozorov Zoxid zomini” f/x	Rozara	50	43	6	1	0	0	14,0	4,0	0,6
		“Nush agro grant” f/x	Umid	50	35	9	3	2	1	30,0	12,5	3,8
		“Farangiz nurli zamin” f/x	Aqrab	50	36	4	4	4	2	28,0	8,0	2,2
2	Narpay	“Kamola” f/x	Sante	50	41	9	0	0	0	18,0	4,5	0,8
		“Ravshan” f/x	Gala	50	44	6	0	0	0	12,0	3,0	0,4
		“Ro'zimurod dexqon” f/x	Pikasso	50	45	4	1	0	0	10,0	3,0	0,3
3	Payariq	“G'alaba Qaxramon ota” f/x	Ramano	50	41	3	4	2	0	18,0	8,5	1,5
		“Ravshanbek dalalari” f/x	Evolyushn	50	42	5	2	1	0	16,0	6,0	1,0
		“Amirxon asl agro” f/x	Rozara	50	46	2	2	0	0	8,0	3,0	0,2
4	Samarqand	“Saxovatli pangat zomini” f/x	Evolyushn	50	43	5	2	0	0	14,0	4,5	0,6
		“Musabek chorva kompleksi” f/x	Gala	50	41	5	4	0	0	18,0	6,5	1,2
		“Qurbonboy Mitinovich” f/x	Sante	50	42	6	2	0	0	16,0	5,0	0,8
5	Oqdaryo	“Hakimov Aduhalim” f/x	Sante	50	44	3	3	0	0	12,0	4,5	0,5
		“Shomurod bobo” f/x	Aqrab	50	39	6	2	2	1	22,0	10,0	2,2
		“Ezozbek Asl dalalari” f/x	Pikasso	50	40	6	2	1	1	20,0	8,5	1,7
		“Temurxon Mo'llaxo'ja” f/x	Ramano	50	38	6	3	3	0	24,0	10,5	2,5

Izoh: Kt, % - kasallikning tarqalishi; Kr, % - kasallikning rivojlanishi; Ki, % - kasallik indeksi.

**6-jadval**  
**2022-2024 yillarda Toshkent viloyatining ayrim tumanlarida fitofloroz kasalligining tarqalishi va rivojlanishi**

№	Tumanlar	Xo'jalik nomi	Kartoshka navi	Kuzatilgan o'simliklarning umumiy soni, dona	Zararlanish darajasi bo'yicha o'simliklar (aloxida shoxlar, poya va barg) soni, dona					Kt, %	Kr, %	Ki, %
					Ballar							
					0	1	2	3	4			
<b>2022 yil</b>												
1	Yuqori chirchiq	"Umar ota o'g'illari" f/x	Rozara	50	42	7	1	0	0	16,0	4,5	0,7
		"Taraqiyot Zamin" f/x	Umid	50	34	3	4	6	3	32,0	20,5	6,6
		"Shoxrux tinchlik agro" f/x	Aqrab	50	35	4	4	4	3	30,0	18,0	5,4
2	Zangi ota	Davr agro klaster	Pikasso	50	41	4	4	1	0	18,0	7,5	1,4
		"Firdavs agro" f/x	Evolyushn	50	42	6	2	0	0	16,0	5,0	0,8
3	Qibray	"Qibray Salar fayz" f/x	Evolyushn	50	40	5	2	2	1	20,0	9,5	1,9
		"Istiqlol Fotima" f/x	Gala	50	39	5	2	2	1	20,0	9,5	1,9
		"Temir qadam Xasan fayz" f/x	Sante	50	48	2	0	0	0	4,0	1,0	0,04
<b>2023 yil</b>												
1	Yuqori chirchiq	"Umar ota o'g'illari" f/x	Pikasso	50	40	6	2	2	0	20,0	8,0	1,6
		"Taraqiyot Zamin" f/x	Umid	50	33	8	3	3	3	34,0	17,5	6,0
		"Shoxrux tinchlik agro" f/x	Evolyushn	50	41	6	3	0	0	18,0	6,0	1,1
2	Zangi ota	Davr agro klaster	Romano	50	35	7	2	4	2	30,0	15,5	4,7
		"Firdavs agro" f/x	Rozara	50	46	4	0	0	0	8,0	2,0	0,2
3	Qibray	"Qibray Salar fayz" f/x	Aqrab	50	36	5	2	5	2	28,0	16,0	4,5
		"Istiqlol Fotima" f/x	Gala	50	40	9	1	0	0	20,0	5,5	1,1
		"Temir qadam Xasan fayz" f/x	Umid	50	38	3	4	4	1	24,0	13,5	3,2
<b>2024 yil</b>												
1	Yuqori chirchiq	"Umar ota o'g'illari" f/x	Rozara	50	43	6	1	0	0	14,0	4,0	0,6
		"Firdavs agro" f/x	Sante	50	41	8	1	0	0	18,0	5,0	0,9
		"Taraqiyot Zamin" f/x	Ramano	50	38	2	4	2	4	24,0	16,0	3,8
2	Zangi ota	"Shoxrux tinchlik agro" f/x	Pikasso	50	40	5	4	1	0	20,0	8,0	1,6
